

## QO'SHMA GAPLARDA SINTAKTIK -STILISTIK VOSITALARNING O'RNI

Nurmatova Surayyo To'liqinjon qizi

Farg'ona davlat universiteti 1-kurs magistranti

O'rinboyeva E'zoza

Filologiya fanlari doktori

**Annotatsiya:** Sintaktik- stilistik vositalar nasriy va she'riy asarlarda faol qo'llanadi va adresantning ko'zlagan maqsadini ochib berishda asosiy vazifani bajaradi. Shuning uchun bo'lsa kerak, xoh proza, xoh poeziya namunasi bo'lsin, albatta, sintaktik- stilistik vositalarga duch kelamiz. Jumladan, qo'shma gaplar tarkibida ham emotsionallikni oshirishga, obrazlilikni ta'minlashga xizmat qiladi.

**Annotation:** Syntactic-stylistic tools are actively used in prose and poetic works and perform the main task in revealing the intended goal of the addressee. That is probably why, whether it is a sample of prose or poetry, we will certainly come across syntactic and stylistic tools. In particular, it serves to increase emotionality and provide imagery in the composition of compound sentences.

**Аннотация:** Синтаксически-стилистические средства активно используются в прозаических и поэтических произведениях и выполняют основную задачу по раскрытию намеченной цели адресата. Вероятно, поэтому, будь то образец прозы или поэзии, мы обязательно встретим синтаксические и стилистические средства. В частности, оно служит повышению эмоциональности и обеспечению образности в составе сложных предложений.

Badiiy adabiyotda qo'shma gaplardan keng ko'lamda foydalaniladi va shoirning ma'lum bir maqsadini amalga oshirishda qo'shma gap tarkibida ko'plab sintaktik-stilistik vositalardan foydalaniladi. Sintaktik-stilistik figuralar "adabiyotshunoslikda poetik sintaksis yoki ritorik figuralar deb yuritiladi"<sup>1</sup>. Bu vositalar sirasiga antiteza, paralellizm, inversiya, takror va uning turlari, ellipsis, gradatsiya kabilar kiradi.

Talantli shoirimiz Sirojiddin Sayyid ijodida qo'shma gaplardan keng ko'lamda foydalangan va bunda sintaktik-stilistik figuralarning o'rni beqiyos. Shoir bu vositalardan she'rning ohangdorligini oshirishda, fikrni tinglovchiga tez va oson yetkazishda, diqqatni tortish maqsadida foydalangan. Quyida esa ayrim sintaktik-stilistik vositalar va bunga shoir ijodidan namunalar bilan tanishamiz:

**Qo'shma gaplarda antiteza.** Antiteza poetikadagi eng sermahsul vositalardandir. Nutqda ifodaviylikni yanada kuchaytirish maqsadida ma'nosi jihatdan bir-biriga zid tushunchalar, mazmunan biri ikkinchisini rad etuvchi fikrlarni qarama-qarshi qo'yish yo'li bilan qiyoslash usuli antiteza deyiladi<sup>2</sup>. Demak, antiteza ikki tushunchani bir-biriga teskari tarzda ifodalaydi va nutq birliklari stilistik maqsadda kontrastlikni yuzaga chiqaradi. Qo'shma gaplarda antitezadan foydalanish natijasida ta'sirchanlik ortadi, tushuncha va fikrlarning bir-biridan farqi ta'kidlanadi hamda mazmun kuchaytiriladi. Qo'shma gaplarda antiteza turli xil vositalar yordamida yuzaga chiqadi. Antitezani yuzaga chiqaruvchi bu vositalar esa "antiteza material"<sup>3</sup> hisoblanadi.

1. Antonim so'zlar. Antonimlar antitezani hosil qiluvchi asosiy va eng sermahsul vosita hisoblanadi.

Gahe **sahro** uzog'i lola shaklidin erur gulgun,

Gahe sahni **chaman** gul chehrasidin arg'uvoniydir.

<sup>1</sup> Mamajonov. A Qo'shma gap stilistikasi. – Toshkent: Fan, 1990, 16-sahifa

<sup>2</sup> Mamajonov. A Qo'shma gap stilistikasi.-Toshkent: Fan,1990,26-sahifa

<sup>3</sup> Mamajonov.A O'sha asar

Zahriddin Muhammad Boburning g'azaliga bitilgan ushbu muxammasda **sahro-chaman** so'zlarini kontrast qo'yish orqali antiteza hodisasi yuzaga chiqqan.

**Zohir** keldingiz, **botin** so'lding sen, Ra'no

Sirojiddin Sayyidning ijodidan keltirilgan ushbu she'riy parchada ham bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari o'rtasida zidlik yuzaga kelgan. Shoir ushbu misrada mashuqaning yuzi kulsa ham, ichi - qalbi iztirobdaligini, so'lg'inligini zohir va botin so'zlarini qo'llash orqali badiiy tarzda yuzaga chiqqan.

2. Ayrim leksik- grammatik formalar. Antitezani hosil qilishda yozuvchi va adiblar o'zining uslubidan kelib chiqqan holda konteks ichida ayrim so'zlarni zidlantiradi va bu she'riy parchadan yulib olib tahlil qilinsa, ular antonimlikni yo'qotadi. Natijada esa kontekstual antitezalar vujudga keladi:

**Chiroqlar** singari **munavvar** etgum,

**Nurlarga** to'ldirgum **kechakaringni**.

Misolda ko'rinib turganidek, chiroq va nur leksemalari munavvar etmoq qo'shma fe'llari kechaga nisbatan antitezani hosil qilgan. Kontekstdan olib qaraganda esa antonimlik yo'qoladi.

3. Modal so'zlar. Modal so'zlar ham qo'shma gaplarda antitezani hosil qiluvchi vositalardan biridir:

Olamdan g'amlar **bor**,

Nihoyasi **yo'q**

**Qo'shma gaplarda paralellizm.** Paralellizm yunonchadan olingan bo'lib, "yonma- yon boruvchi" ma'nosini anglatadi. Yonma- yon gaplar, sintagmalarning bir xil sintaktik qurilishga ega bo'lishi<sup>4</sup> paralellizmni vujudga keltiradi. Paralellizmda qo'shma gapdagi sodda gaplar tarkibidagi gap bo'laklari aynan bir xil ketma- ketlikda takrorlanadi. Bu esa she'rning poetik qiymatini oshiradi, shuningdek, ifodalanayotgan fikrni adresantga tez yetkazish, uqtirish singari funksiyalarni bajaradi va she'rning ohangdorligini oshiradi.

Paralellizm o'z ichida mazmuniy va struktural paralellizmga ajratiladi.

Mazmuniy paralellizm. Paralellizmning bu turida taqqoslanayotgan tushunchalarning strukturasi emas, uning ma'nosi yetakchilik qiladi, mazmun takrorlanadi va o'zaro bir- biriga yaqin bo'ladi. Xususan, dubletlar mazmuniy paralellizmga yaqqol misol bo'la oladi:

Kaptar- kabutar, ajdar- ajdaho

**Struktural paralellizm.** Paralellizmning bu turi badiiy matn, xususan, poetik asarlar yaratishda juda sermahsul va qulay hisoblanadi. Struktural paralellizm yordamida yozilgan misralar tinglovchi yodida tez va uzoq vaqt saqlanib qoladi, shuningdek, tushunish ham osonlashadi.

Aniqllovchi ega kesim, aniqllovchi ega kesim

Bu oqshom meningdir, Bu ayyom mening,

Aniqllovchi ega kesim, aniqllovchi ega kesim

Bu soqiy meningdir, bu Xayyom mening.

<sup>4</sup> Hojiyev.A Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. 79-bet

Hol kesim ega aniqlovchi

Ko'kdan jilva qilsa Surayyom mening,

Hol kesim ega aniqlovchi

Yerda ishva aylar Muhayyom mening

Keltirilgan misoldan ko'rinib turganidek, birinchi va ikkinchi misralardagi bog'lovchisiz qo'shma gaplar va uchinchi va to'rtinchi misralardagi ergashgan qo'shma gaplar struktural paralellizmni hosil qilgan. Qo'shma gaplar tarkibidagi gap bo'laklari bir xil o'rinda va teng miqdorda ishtirok etgan. Bu esa struktural paralellizmi qo'shma gap hosil qilishning 2 ta asosiy shartga to'liq rioya qilinganidan dalolatdir. Ya'ni struktural paralellizm hosil qilishning bir necha shartlari mavjud bo'lib, qo'shma gapni tashkil etuvchi komponentlar- predikativ birliklar bir tipli va gap bo'laklari miqdorining teng bo'lishi uning asosiy talablaridandir.

**Qo'shma gaplarda anafora.** Anafora parallel tuzilgan nutq parchalari boshida aynan bir unurning takrorlanishidan iborat uslubiy qo'llanish<sup>5</sup> hisoblanadi. "Unsur" sifatida leksik birliklar ham, sintaktik birliklar ham kelishi mumkin. Shunga ko'ra ularni "ikkiga bo'lish mumkin:

I. Leksik-morfologik anaforalar.

II. Sintaktik anaforalar."<sup>6</sup>

Sintaktik-anaforalar qo'shma gaplarda aktiv qo'llanuvchi stilistik vosita hisoblanadi. Natijada gapning mazmuni oydinlashadi va tushunish osonlashadi:

Daryo bilan xayrlashaman,

Xayrlashganday suron bilan.

Daryo bilan xayrlashaman,

Xayrlashganday to'fon bilan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamajonov. A Qo'shma gap stilistikasi. – Toshkent: Fan, 1990, 16-sahifa
2. Hojiyev. A Tilshunoslik terminlarining izohli lug'at
3. Asqarova M. Hozirgi zamon o'zbek tilida qo'shma gaplar. - Toshkent: 1960
4. Berdaliyev A. Ergash gapli qo'shma gap konstruksiyalarda semantik-signikativ paradigmatika. - Toshkent, 1989

<sup>5</sup> Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensklopediyasi

<sup>6</sup> Mamajonov A. O'sha asar